Qabul qilindi: 23-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 29-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 05-oktabr 2026-yil

BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARINING INNOVATSION KASBIY MAHORATINI SHAKLLANTIRISH JARAYONIDAGI MUAMMOLAR TAHLILI

Sharipova Sevara Erkin qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni tizimli isloh qilish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish, o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish kabi muammolarni tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innavatsion-kasbiy faoliyat, o‘qituvchi mahorati, kasbiy rivojlanish, ta’lim sifati

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning PQ-5847-sonli qaroriga ilova sifatida tasdiqlangan “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da: oliy ta’lim mazmuni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tariladi, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimi yo‘lga qo‘yilishi Konsepsiyadan kutilayotgan natija sifatida e’tirof etiladi. [1]

Shu sababli ham zamonaviy ta’lim tizimi, uning maqsad va vazifalari mamlakatimiz taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ta’lim-tarbiya jarayoni oldiga qo‘yilgan muammo yechimiga mos kelishi kerak. Bular zamonaviy ta’lim tizimida millat ruhiyatining nozik jihatlariga kirib borish va boshlang‘ich ta’limda savodxonlik asoslarini puxta egallash hamda hisoblash tafakkurini shakllantirishning innovastion usullarini yaratishni taqozo etadi.

Ushbu yo‘nalishdagi ishlarni uzluksiz ta’lim tizimining dastlabki bosqichi bo‘lmish boshlang‘ich ta’limdan boshlash ahamiyatli va foydali hamda istiqbolli ekanligi hozirda hech kimga sir emas. Chunki, bu orqali O‘quvchilar jamiyat taraqqiyotining ma’naviy

asoslarini egallagan, Vatanning istiqbolini o‘ylaydigan, Vatan ravnaqiga, yurt tinchligiga va xalq farovonligiga munosib hissa qo‘sha olish mumkinligini ongli ravishda his qila oladilar. Bu tabiiyki, boshlang‘ich ta’lim mazmuniga katta mas’uliyat yuklaydi.

Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi - boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalash, ularga ta’lim berish, ularning o‘ziga xos psixologik hamda fiziologik xususiyatlarini tadqiq etish, shuningdek, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga etkazish masalalarini o‘rganadi.

Innovatsion faoliyat - pedagogning o‘z kasbini mukammallashtirish va uni takomillashtirishdagi mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashida ijodiy yondashuvini nazarda tutadi. Ta’limdagi innovatsiyalar va innovatsion ta’limiy faoliyat mukammal tarkib topmagan shu bilan birga aniq bir to‘xtamli bo‘lmagan ilmiy faoliyat ekanligini e’tirof etish lozim. Buning asosiy sabablaridan biri ta’limiy bilim va amaliy ta’limiy faoliyat o‘rtasidagi uzilishdir. Pedagog innovatsion faoliyatning subyekti va tashkilotchisi sifatida yangilikni yaratish, uni faoliyatda qo‘llay olish hamda targ‘ibot etishda ishtirok etar ekan, faoliyatning samaradorligi va natijadorlikni anglamog‘i, fandagi bilim, an’analardagi o‘zgarishlar mazmunini va mohiyatini tahlil eta bilishi lozim.

O‘qituvchining mahorat bilan dars o‘tishi, darsni tushuntirish g‘oyalari asosida o‘qituvchining bolalar bilan o‘zaro harakati tushuniladi, sinfda psixologik birlik yaratish har bir metodik yondashuv uchun o‘ziga xos muloqot yo‘lini tanlab borish kabilar kiradi. Ta’lim jarayoniga yangicha yondoshish, ijodkorlik, bunyodkorlik tatbiq etilsagina, ta’lim samaraliingi bosqichga ko‘tariladi, ya’ni bolaning talabi, moyilligi, istak-hoxishi uning imkoniyatlari darajasida qondiriladi; o‘quvchining o‘quv mehnatiga mas’uliyati, javobgarligi va burchi oshadi; bilimlarni mustaqil egallash malakalari shakllanadi; u umr bo‘yi o‘z bilimini boyitishga ishonch paydo bo‘ladi; erkin fikrlash malakasi shakllanadi; shaxs jamiyatda o‘zining o‘rnini tezroq topib olishga muhit yaratadi.

O‘quvchilarda har tomonlama o‘zi jamoada erkin tutish ko‘nikmalari, to‘g‘riso‘zlik, fikrini to‘la, to‘g‘ri bayon etishga o‘rganishda o‘qituvchining o‘rni muhimdir. O‘qituvchi bunday tarbiyani berishda ajdodlarimiz boy merosidan foydalanishi juda foydalidir.

Ajdodlarimizning yurt-tinchligi, farovonligi yo‘lida qilgan mislsiz qahramonliklari, mardliklari haqida gaprib berib o‘quvchilarni hamisha shunday bo‘lishga chorlash kerak. Bunday hikoyalar o‘quvchilarda g‘urur tuyg‘usini uyg‘otadi, ular hali bobolari kabi erkin, to‘g‘ri so‘z, mard bo‘lishlariga undaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining malakasini oshirish tizimida metodik tayyorgarligini takomillashtirish, uzluksiz kasbiy rivojlantirishning ko‘p jihatdan nazariy yoritilishiga qaramay, jamiyat, fan va ta’limning yangi yo‘nalishlari o‘qituvchini innovatsion metodik tayyorgarligini takomillashtirish, uzluksiz kasbiy rivojlantirish zaruriyatini kuchaytiradi

O‘qituvchilarni kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish, kasbiy rivojlantirish masalalari bo‘yicha yurtimiz pedagog olimlaridan Z.Artikbayeva [2] malaka oshirish jarayonida maktab matematika o‘qituvchilari kasbiy ko‘nikmalarini takomillashtirishning pedagogik asoslari, rivojlantiruvchi ta’lim vositasida matematika o‘qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirish yo‘llari, N.A.Muslimov [3] bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish masalalari, I.Y.Raxmonov [4] geometriyani o‘qitish jarayonida talabalarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyasi, M.I.Toshpo‘latova [5] bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish, T.T.Shaymardonov [6] pedagog kadrlar malakasini oshirish va kasbiy faoliyati monitoringini tashkil etish mazmuni, ko‘rsatkichlari, infratuzilmasi, dasturiy va metodik ta’minoti, axborot resurslarini shakllantirish tizimi, D.O.Ximmataliyev [7] pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi asosida kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni diagnostika qilish yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar. O‘qituvchilarning o‘zini o‘zi kasbiy rivojlantirish uchun o‘qituvchiga xos bo‘lgan akmeologik pozitsiyaning mavjudligi (uning shaxsiy faoliyati), moslashuvchanlik (atrofdagi voqelik shartlaridan shaxsiy rivojlanish uchun foydalanish qobiliyati), jamiyatda o‘z salohiyatini amalga oshirish istagi, o‘zini anglashi va shuningdek, o‘zini o‘zi boshqarish orqali o‘z kasbiy faoliyatini yanada takomillashtirishga tayyorligi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi ta’lim tizimimiz rivoji, yosh avlod tarbiyasi, o‘qituvchi

mahorati va uning kasbiy rivojlanishi juda katta ahamiyatga ega masalalar hisoblanadi. O‘qituvchilarni kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish, kasbiy rivojlantirish masalalari bo‘yicha qator ishlar olib borilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonii. PQ-5847-son. 2019-yil. https://lex.uz.

2. Artiqboyeva Z.A. Malaka oshirish tizimida maktab matematika o‘qituvchilarining kasbiy-metodik ko‘nikmalarini takomillashtirish: ped.f.n. ... diss. –T.: 2004. -163 b.

3. Muslimov N.A. Kasb ta’lim o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: ped.f.dok. ...diss. –T.:2007, -315 b.

4. Raxmonov I.Y. Geometriyani o‘qitish jarayonida talabalarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyasi: ped.f.nom. diss. – T.: 2012, -160 b.

5. Toshpo‘latova M.I. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish. ped.f.dok. (PhD) diss. – T.: 2017, -148 b.

6. Yuldashev M.A. Xalq ta’limi xodimlarining malakasini oshirishda ta’lim sifati menejmentini takomillashtirish: ped. fan.dok. ...diss. –T.: 2016. -309 b.

7. Ximmataliyev D.O. Kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni diagnostika qilishda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi (texnika oliy ta’lim muassasalari “Kasb ta’limi” yo‘nalishlari misolida): ped. fan. dokt. ... diss. – T.: 2018. -248 b.